

## BUXORO VILOYATIDA KECHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA YECHIMLAR

Hamroqulova Xosiyat Faxriddin qizi

Buxoro davlat universiteti 3-bosqich talabasi.

Alimova Shaxnoza Oktyamovna

Buxdu, Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20711491>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Buxoro viloyatida kechki turizmni rivojlantirish imkoniyatlari, mavjud to‘siqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot Xitoyda tungi turizm xavfsizligi bo‘yicha o‘tkazilgan keng ko‘lamli empirik tadqiqotlar (Huang va boshq., 2023) hamda Hindistonda kechki turizmni rivojlantirish tajribasiga oid ilmiy ishlar (Dhakad va (IITM), 2018. – 12 b.) asosida qurilgan. Buxoroning boy tarixiy merosi, qulay iqlimi va mavjud turizm infratuzilmasi kechki turizmni rivojlantirish uchun kuchli zamin ekanligi aniqlangan. Biroq xavfsizlik muammolari, huquqiy cheklovlar, mahalliy aholining xabardorlik darajasining pastligi va yoritish infratuzilmasining yetarli emasligi asosiy to‘siqlar sifatida belgilangan. Maqola kechki turizmni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv - siyosiy, infratuzilmaviy va ijtimoiy choralar majmuini taklif etadi.

**Kalit so‘zlar:** kechki turizm, tarixiy yodgorliklar, xavfsizlik, 4M nazariyasi, turizm xavfsizligi, ijtimoiy tarmoqlar tahlili (SNA).

### KIRISH

Kechki va tungi turizm so‘nggi o‘n yil ichida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan turizm turlaridan biriga aylandi. Kechki turizm - kechki soat 18:00 dan ertalab 06:00 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida amalga oshiriladigan har qanday turistik faoliyat turi sifatida ta‘riflanadi. Bu yo‘nalish nafaqat turizm sanoatini boyitadi, balki shaharlarning iqtisodiy faolligini oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratishning muhim vositasiga ham aylanib bormoqda.

Buxoro - O‘zbekistonning eng qadimiy shaharlaridan biri bo‘lib, 2000 yillik tarixi va UNESCO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan noyob yodgorliklariga ega. Kalon minorasi, Poyi Kalon majmuasi, Ark qal‘asi, Lyabi-Hovuz ansambli kabi tarixiy obyektlar kunduz kunlari minglab xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb etadi. Ammo kechki paytda bu ulug‘vor yodgorliklar va tarixiy ko‘chalar asosan bo‘sh qoladi. Aynan mana shu bo‘shliq kechki turizmni rivojlantirish uchun ulkan, ammo hali to‘liq foydalanilmagan imkoniyatni anglatadi.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, Las-Vegas (AQSh), Gonkong, Singapur, Tailand kabi mashhur kechki turizm markazlari mahalliy iqtisodiyotga katta hissa qo‘shmoqda. Hindiston misolida ham ko‘ringanidek, Jaipur, Indor kabi shaharlarda joriy etilgan kechki turizm dasturlari - kechki bozorlar, yodgorliklarni yoritish, madaniy tadbirlar - muvaffaqiyatli natijalar bermoqda.

Shu bilan birga, kechki turizm o‘ziga xos xavf va muammolarni ham keltirib chiqaradi. Xitoyda 8787 ta baxtsiz hodisani tahlil qilgan keng ko‘lamli tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, kechki vaqtda halokatli hodisalar (53,19%), jamoat salomatligi hodisalari (28,81%), ijtimoiy xavfsizlik hodisalari (9,05%) va tabiiy ofatlar (8,95%) asosiy xavf turlarini tashkil etadi. Buxoroda ham xuddi shunday muammolar yuzaga kelishi mumkin va ularni oldindan inobatga olish va zaruriy chora-tadbir rejaları ishlab chiqqan holda ushbu turni rivojlantirish zarurdir. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi - Buxoro viloyatida kechki turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil

qilish, mavjud to‘siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2017-yilda boshlangan keng ko‘lamli islohot natijasida xorijiy sayyohlar soni keskin o‘ydi: 2017-yilda 2,7 million bo‘lgan xorijiy sayyohlar soni 2019-yilda 6,7 millionga yetdi. 2020-2022 yillardagi pandemiya davrida sustlashgan o‘shish 2023-yildan boshlab yana tiklana boshladi va O‘zbekistonga kelayotgan xorijiy sayyohlar soni yiliga 7 milliondan oshdi.

Buxoro viloyati ushbu o‘shish tendensiyasida alohida o‘rin tutadi. Buxoro shahri O‘zbekistonning to‘rtta UNESCO Jahon merosi obyektidan biriga ega bo‘lib (1993-yilda ro‘yxatga olingan), har yili 500 000 dan ziyod xorijiy sayyohni qabul qilmoqda. O‘zbekistonda 2025-yilda 11,7 million turist tashrifi kuzatilgan bo‘lib, 2026-yilda bu ko‘rsatkich 12-14 million bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Buxoro viloyat turizm boshqarmasi va Turizm qo‘mitasi ma‘lumotlariga asoslangan hisob-kitoblarga ko‘ra 2025-yil Buxoro viloyati uchun sayyohlar oqimining misli ko‘rilmagan darajada o‘shishi yili bo‘ldi. Yil davomida butun mamlakat bo‘ylab 11,7 million xorijiy sayyoh qayd etilgan, bu 2024-yilga nisbatan 46,8% (yoki 3,7 million kishi) o‘shishni anglatadi. Buxoro ushbu oqimning katta qismini o‘zlashtirib, madaniy va ma‘rifiy turizm uchun “magnit” maqomini mustahkamladi. Eng yuqori davr ko‘rsatkichlari alohida e‘tiborga loyiqdir. 2025-yil 5-sentabrdan 15-oktabrgacha Xalqaro zamonaviy san‘at biennalesi davomida Buxoro viloyatiga 1 224 200 sayyoh tashrif buyurdi. Bulardan 570 800 kishi xorijiy sayyohlar, 653 400 kishi mahalliy sayyohlarni tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 baravar yuqori bo‘lib, bu tadbir marketingining samaradorligini ko‘rsatadi. Ushbu oqimning iqtisodiy ta‘siri xorijiy sayyohlarga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida aks etdi, bu ko‘rsatkich yuqorida aytib o‘tilgan bir yarim oy ichida 155,6 million AQSh dollarini tashkil etdi, bu o‘tgan yilgi ko‘rsatkichlardan 1,6 baravar ko‘pdir. Bu davrda mintaqadagi mehmonxona fondining o‘rtacha bandlik darajasi 84–92% oralig‘ida o‘zgarib turdi, bu esa infratuzilmaning loyihaviy quvvati chegarasida ishlayotganidan dalolat beradi.

Vaholanki, Buxoroda kechki turizm rivojlantirilsa, sayyohlarning o‘rtacha qolish muddatini 3-4 kunga uzaytirish imkoni bor. Bu esa bir sayyohdan olinadigan o‘rtacha daromadni ikki barobarga oshiradi va yiliga qo‘shimcha 50-80 million dollar daromad yaratishi mumkin. Bundan tashqari, kechki turizm infratuzilmasi uchun zarur bo‘lgan restoran, transport, xizmat ko‘rsatish sohasida yangi ish o‘rinlari ochilib, mahalliy aholining turmush darajasi yaxshilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “Turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va yangi turizm mahsulotlarini ishlab chiqish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qilib belgilandi. 2023-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo‘lgan turizm rivojlanish strategiyasida “Kechki turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish” alohida vazifa sifatida ko‘rsatildi. Ammo hali Buxoro viloyati misolida kechki turizmni tizimli ravishda rivojlantirishga qaratilgan maxsus tadqiqot amalga oshirilmagan. Ushbu maqola ushbu siyosiy vazifaning ilmiy asosini yaratishga xizmat qiladi.

Buxoro viloyat hokimligi va shahar turizm boshqarmasi 2030-yilgacha Buxoroni “O‘zbekistonning kechki turizm poytaxti”ga aylantirish dasturini ishlab chiqishni rejalashtirmoqda. Ushbu maqola ana shu dasturning ilmiy asosi va metodologik yo‘riqnomasi sifatida amaliy ahamiyat kasb etadi.

## **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqot sifatii va miqdoriy metodlarning kombinatsiyasiga asoslangan aralash metodologik yondashuv (mixed methods approach) asosida olib borildi. Tadqiqotda ikkilamchi

ma'lumotlar tahlili (secondary data analysis) asosiy metodologik asos sifatida qo'llanilib, Buxoroga oid birlamchi ma'lumotlarni tahlil bilan birlashtirildi. Shuningdek, MDPI — International Journal of Environmental Research and Public Health), UNESCO, O'zbekiston turizm vazirligi va Buxoro viloyat hokimligi hujjatlari hamda Scopus, Web of Science hamda Google Scholar kabi nufuzli xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi. Tahlil metodlaridan SWOT tahlili - Buxoroning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini baholash uchun; Qiyosiy tahlil (Comparative Analysis) - xorijiy tajribalarni Buxoro sharoiti bilan solishtirish uchun; 4M nazariyasi asosida xavf tahlili - kechki turizmdagi xavf omillarini tizimlashtirish uchun; Adabiyotlar sintezi (Literature Synthesis) - mavjud ilmiy ishlar asosida umumiy xulosalar chiqarish uchun ishlatildi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy turizm fani doirasida kechki turizm (ingliz. *night tourism* yoki *noctourism*) mustaqil ilmiy tadqiqot sohasi sifatida shakllangan bo'lib, u soat 18:00 dan 06:00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida amalga oshiriladigan barcha turistik faoliyatlarni qamrab oladi. Huang va boshqalar (2023) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, kechki turizm kunduzgi turistik faoliyatning organik kengayishi va davomi sifatida qaraladi hamda sayyohlarga kunduzgi sayohat doirasida his etib bo'lmaydigan noyob atmosfera, hissiy tajriba va madaniy boyitish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ushbu fenomen turlicha terminologik ifodalarda uchraydi. Xususan, *noctourism*, *nocturnal tourism*, *night-time economy* va *evening tourism* tushunchalari ayni bir hodisaning turli jihatlarini aks ettiradi. Ushbu terminologik xilma-xillik kechki turizmning ko'p qirrali tabiatini va tadqiqotchilarning unga bo'lgan turlicha yondashuvlarini namoyon etadi. Kechki turizm bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar bir nechta asosiy tadqiqot yo'nalishlarini qamrab oladi. Huang va boshqalar (2023) ushbu yo'nalishlarni quyidagicha tizimlashtirib ko'rsatadi:

Dunyo miqyosida kechki turizm Shimoliy Amerika, Yevropa, Avstraliya va Osiyo-Tinch okeani mintaqalarida jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Las-Vegas, Gonkong, Singapur va Tailandning ko'pgina shaharlari jahon kechki turizm markazlari (*night tourism hubs*) sifatida e'tirof etilgan (Dhakad va (IITTM), 2018. – 12 b). Ushbu shaharlar tungi bozorlar, hunarmandchilik ko'rgazmalari, interaktiv madaniy tadbirlar va mukammal gastronomik sayohatlar orqali yiliga millionlab xorij va ichki sayyohlarni jalb etmoqda. Osiyo mintaqasida, xususan Hindistonda ham ushbu soha katta salohiyat sifatida ko'rib chiqilmoqda. Dhakad va Hindiston turizm va sayohatlarni boshqarish instituti tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, Jaipur va Indor singari shaharlarning tarixiy yodgorliklarini kechki yoritish (*light and sound shows*), Indordagi Sarrafa Bozori kabi tungi bozorlarni tartibga solish va madaniy tadbirlar sayyohlar oqimini sezilarli darajada kengaytirgan. Bu tajriba O'rta Osiyo shaharlari, jumladan Buxoro uchun ham munosib amaliy namuna bo'lib xizmat qiladi.

Kechki turizm zamonaviy shahar iqtisodiyotida tobora muhimroq o'rin egallamoqda. Huang va boshqalar (2023) ta'kidlaganidek, u quyidagi iqtisodiy funksiyalarni bajaradi:

Birinchidan, kechki turizm bozor iste'mol talabini faollashtiradi — sayyohlarning kunduzgi xarajatlariga qo'shimcha tarzda kechki iste'mol chiqimlari shahar yalpi ichki mahsulotiga ijobiy hissa qo'shadi. Ikkinchidan, yangi biznes imkoniyatlari vujudga keladi: tungi restoranlar, ko'ngilochar markazlar, transport va xavfsizlik xizmatlarida yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi. Uchinchidan, kechki turizm shaharlarning **24 soatlik iqtisodiy modeli** (*24-hour economy*)ga o'tishini jadallashtiradi, bu esa shahar infrastrukturasi yuqori samaradorlik bilan ishlashiga zamin hozirlaydi.

1-jadval. Kechki turizm hodisalari sabablarini tizimli tushuntirishda **4M nazariyasi**

Xavf omili kategoriyasi	Ulushi	Asosiy tarkibiy elementlar
-------------------------	--------	----------------------------

	(%)	
Xodimlar xavfi ( <i>Man hazard</i> )	33,97	Kasbiy tayyorgarlik darajasi, hushyorlik, stressga chidamlilik
Boshqaruv xavfi ( <i>Management hazard</i> )	24,29	Qoidalar tizimi, monitoring, favqulodda vaziyatlarga tayyorlik
Muhit xavfi ( <i>Medium hazard</i> )	24,16	Yoritilganlik darajasi, yo'l va zamin holati, ob-havo sharoiti
Asbob-uskunalar xavfi ( <i>Machine hazard</i> )	17,58	Texnik ishonchlilik, elektr ta'minoti, navigatsiya tizimlari

Ma'lumotlar asosida shuni ko'rish mumkinki, barcha xavf omillarining yarmidan ko'pi **boshqaruv va inson omili** bilan bog'liq. Bu esa malakali kadrlar tayyorlash va samarali menejment tizimini joriy etishning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Huang va boshqalar (2023) kechki turizmga xos xavflarning ikki asosiy mexanizmini ajratib ko'rsatadi:

**Sensorli-kognitiv omil:** kechasi ko'rish qobiliyatining fiziologik ravishda pasayishi va kunduzgi faoliyatdan to'plangan jismoniy hamda ruhiy charchoq sayyohlarning yashirin xavflarga nisbatan sezgirligini oshiradi va reaksiya tezligini sekinlashtiradi.

**Ijtimoiy-xulq-atvor omili:** tungi bar, klub va boshqa ko'ngilochar joylarda yoshlar orasida kuzatiladigan xavfli xatti-harakatlar - haddan ortiq spirtli ichimlik iste'moli, narkotik moddalar va tasodifiy kasalliklar, jarohat va to'satdan o'lim ehtimolini statistik jihatdan sezilarli darajada oshiradi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mintaqaning turistik jozibadorligini oshirish va xizmatlar diversifikatsiyasini ta'minlashda tungi turizm istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Buxoro viloyatining boy madaniy-tarixiy merosi va iqlimiy xususiyatlari ushbu sohani rivojlantirish uchun poydevor bo'lib xizmat qilsa-da, mavjud resurslardan samarali foydalanishda bir qator ichki va tashqi omillarning ta'sirini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Quyida keltirilgan SWOT tahlili jadvalida hududning kechki turizm salohiyati, unga to'sqinlik qilayotgan infratuzilmaviy cheklovlar hamda sohani modernizatsiya qilishdagi strategik imkoniyatlar va ehtimoliy xavf-xatarlar tizimlashtirilgan holda bayon etiladi:

#### 2-jadval. Buxoro viloyatida kechki turizmning SWOT tahlili

KUCHLI TOMONLAR (Strengths)	ZAIF TOMONLAR (Weaknesses)
<ul style="list-style-type: none"> <li>• UNESCO ro'yxatidagi noyob yodgorliklar</li> <li>• Quruq va iliq iqlim (yoz oqshomlariga qulay)</li> <li>• Boy milliy madaniyat va oshpazlik an'analari</li> <li>• Mavjud turizm infratuzilmasi</li> <li>• Xalqaro sayyohlar oqimi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kechki yoritish infratuzilmasining yetarli emasligi</li> <li>• Kechki xizmatlar va restoran sektorining cheklanganligi</li> <li>• Mahalliy aholining kechki turizm haqida bilimining pastligi</li> <li>• Kechki transport xizmatlarining kamligi</li> </ul>
IMKONIYATLAR (Opportunities)	TAHDIDLAR (Threats)
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Samarkand tajribasini qo'llash imkoniyati</li> <li>• Kechki madaniy va gastronomik turizm bozori</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Xavfsizlik hodisalari xavfi</li> <li>• Yodgorliklarni kechki tashrif uchun ochish huquqiy to'siqlari</li> <li>• Yorug'lik ifloslanishi (astronomik</li> </ul>

<ul style="list-style-type: none"> <li>• Astronomik turizm imkoniyatlari (qulay osmon)</li> <li>• Sayyohlarning qolish muddatini uzaytirish</li> </ul>	turizm uchun) <ul style="list-style-type: none"> <li>• Xorijiy sarmoyadorlarni jalb etishdagi qiyinchiliklar</li> </ul>
--	---

Xorijiy tajriba va Buxoroning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi kechki turizm yo'nalishlari eng istiqbolli deb baholanadi:

Birinchi yo'nalish - tarixiy va madaniy kechki turlar. Buxorodagi yodgorliklarni professional kechki yoritish ostida maxsus qo'llanmalar bilan piyoda ziyorat qilish, tarixiy kiyimlarda aktyorlar ishtirokida “tirik tarix” ko'rgazmalari, Ark qal'asi va boshqa yodgorliklarda kechki tarixiy spektakllar o'tkazish ushbu yo'nalishning asosini tashkil etadi. Hindiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, Jaipur shahrida saroylar va qal'alarni kechki yoritish sayyohlar sonini sezilarli darajada oshirdi (Dhakad va (IITTM), 2018. – 12 b.).

Ikkinchi yo'nalish - milliy madaniyat va san'at kechalari. Lyabi-Hovuz maydonida an'anaviy o'zbek musiqasi va raqs kechalari, Shashmaqom va klassik musiqa ijrolari, xattotlik, kashtachilik va zargarlik ustalari ishini jonli namoyish etish Buxoroning boy madaniy merosini kechki vaqtda ochib berishning samarali usuli bo'la oladi.

Uchinchi yo'nalish - oshpazlik kechalari (Culinary Night Tourism). Kechki milliy bozor, o'zbek taomlari festivallari, sayyohlar uchun oshpazlik master-klasslari va choyxonalarda an'anaviy kechki choy marosimlari ushbu yo'nalishning asosiy komponentlarini tashkil etadi. Hindistondagi Sarrafa Bozori tajribasi (Indor shahri) shuni ko'rsatadiki, faqat kechalari ishlaydigan tungi bozorlar katta turistik attraksion bo'la oladi (Dhakad va (IITTM), 2018. – 12 b..).

Buxoroda kechki turizmni rivojlantirish istiqbollari belgilashda xalqaro tajriba, xususan, turizm industriyasi jadal taraqqiy etgan Xitoy va Hindiston misollarini qiyosiy o'rganish muhim amaliy ahamiyatga ega. Mazkur davlatlar tajribasida kuzatilgan tizimli muammolar va ularning yechimlari Buxoro mintaqasidagi mavjud holat bilan o'zaro o'xshashliklarga ega ekanligi aniqlandi. Xususan, kechki turizm infratuzilmasini shakllantirishda xavfsizlik choralari ta'minlash, huquqiy tartibga solish va aholining sohaga oid xabardorligini oshirish kabi masalalar bugungi kunda asosiy to'siqlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Quyidagi 3-jadvalda ushbu to'siqlarning Xitoy va Hindiston tajribasidagi o'xshash jihatlari hamda Buxoro sharoitidagi o'ziga xos ko'rinishlari bo'yicha qiyosiy tahlil natijalari keltirilgan:

3-jadval. Buxorodagi kechki turizm to'siqlari va xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil

<b>To'siq turi</b>	<b>Xitoy tajribasidagi o'xshashligi</b>	<b>Buxorodagi namoyon bo'lishi</b>
<b>Xavfsizlik</b>	Halokatli hodisalar 53,19%, ijtimoiy xavfsizlik 9,05%	Kechki paytda yoritish va qo'riqlash yetarli emas
<b>Huquqiy to'siqlar</b>	ASI yodgorliklarni kechki ochishga ruxsat bermagan	Madaniy meros obyektlarida kechki ish vaqti cheklangan
<b>Infratuzilma</b>	Kechki yoritish zaifligida hodisalar ko'payishi	Yodgorliklar atrofida yoritish va transport yetarli emas
<b>Xabardorlik</b>	Mahalliy xodimlar xavf omili 33,97%	Mahalliy aholi va tadbirkorlarning bilim darajasi past

Yuqoridagi qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Buxoroda kechki turizmni rivojlantirishdagi to'siqlar nafaqat tashqi infratuzilma, balki ichki boshqaruv va xavfsizlik tizimi

bilan ham uzviy bog‘liqdir. Xususan, xavfsizlik darajasi va xodimlarning bilim darajasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimli risklarni chuqurroq o‘rganishni talab etadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish va turistik obyektlarda xavfsiz muhitni shakllantirish maqsadida, mavjud holatni kompleks baholash lozim. Shu munosabat bilan, aniqlangan to‘siqlarning kelib chiqish sabablarini va ularning inson, texnika hamda boshqaruv omillari bilan aloqadorligini 4M nazariyasi (Man, Machine, Medium, Managament) asosida quyidagicha tahlil qilish maqsadga muvofiq:

Asbob-uskunalar xavfi (17,58%) Buxoro uchun ayniqsa dolzarbdir, chunki kechki yoritish infratuzilmasi hali yetarlicha rivojlanmagan. Xitoy tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, soat 21:00 dan 23:00 gacha infratuzilma yopilishi bilan hodisalar ko‘payadi — Buxoroda ham bu vaqtda xavfsizlikka alohida e‘tibor qaratish zarur.

Muhit xavfi (24,16%) Buxoroda ham ahamiyatlidir: yoz oylarida yuqori harorat (issiqlik urishi xavfi), kuchli shamol (qumli bo‘ron) va ba‘zan yomg‘ir kabi havo hodisalari kechki tadbirlarni xavfli qilishi mumkin. Boshqaruv xavfi (24,29%) esa kechki paytda nazorat va patrul intensivligini kamayishi bilan bog‘liq — bu Buxoro politsiyasi va xavfsizlik xizmatlarini faollashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

### **XULOSA VA TAVSIYALAR**

Ushbu tadqiqot natijalarini umumlashtirib, quyidagi asosiy xulosalar chiqarish mumkin:

Buxoro viloyati kechki turizmni rivojlantirish uchun O‘zbekistondagi eng yaxshi imkoniyatlarga ega hududlardan biridir. UNESCO ro‘yxatidagi yodgorliklar, qulay iqlim, boy madaniy meros va mavjud xalqaro sayyohlar oqimi kechki turizmning mustahkam poydevorini tashkil etadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Huang, R., Xie, C., Lai, F., Li, X., Wu, G., & Phau, I. (2023). Analysis of the Characteristics and Causes of Night Tourism Accidents in China Based on SNA and QAP Methods. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, 20(3), 2584. <https://doi.org/10.3390/ijerph20032584>
2. Dhakad, S., Maheshwari, R., Bindal, A., & Goyal, A. Night Tourism. Knowledge Paper. IITTM (Indian Institute of Tourism and Travel Management).
3. Li, R., Li, Y.Q., Liu, C.H., & Ruan, W.Q. (2021). How to create a memorable night tourism experience: Atmosphere, arousal and pleasure. *Current Issues in Tourism*, 25, 1817–1834.
4. Chen, N., Wang, Y., Li, J., Wei, Y., & Yuan, Q. (2020). Examining structural relationships among night tourism experience, lovemarks, brand satisfaction, and brand loyalty on 'cultural heritage night' in South Korea. *Sustainability*, 12, 6723.
5. Song, H., Kim, M., & Park, C. (2020). Temporal distribution as a solution for over-tourism in night tourism: The case of Suwon Hwaseong in South Korea. *Sustainability*, 12, 1–14.
6. Pinke-Sziva, I., Smith, M., Olt, G., & Berezvai, Z. (2019). Overtourism and the night-time economy: A case study of Budapest. *International Journal of Tourism Cities*, 5, 1–16.
7. Jiang, Y.Y., & Hong, F.Z. (2021). Examining the relationship between customer-perceived value of night-time tourism and destination attachment among generation Z tourists in China. *Tourism Recreation Research*, 2, 1–14.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-yanvardagi 'O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida' PQ-3354-sonli Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi rasmiy statistikasi: 2025-yil yakunlari va 2026-yil prognozlar. URL: <https://uzbektourism.uz> (murojaat sanasi: 24.04.2026).

10. YuNESKOning Jahon merosi markazi. Buxoro tarixiy markazi. 2023.  
URL:<https://whc.unesco.org/en/list/602>(murojaat sanasi: 24.04.2026).
11. Huang, W.J., & Wang, P. (2018). 'All that's best of dark and bright': Day and night perceptions of Hong Kong cityscape. *Tourism Management*, 66, 274–286.